

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA МАТЕМАТИК QOBILYATNI TARBIYALASH

A.A.Mamatova

15-DMTT tarbiyachi-metodisti

Bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ularning ilk matematik tasavvurlarini izchil va uzluksiz o'stirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar uchun matematika, geometriyaga oid ta'lim-tarbiya mazmunining asosini tabiat va tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarni sanash, o'lchamlari jihatidan qiyoshlash, turli geometrik shakllarni farqlash, bir necha shakllardan boshqa bir shakllarni yasash kabilar tashkil etadi.

Bog'cha yoshdagi bolalar uchun matematikaga oid ta'lim-tarbiya berishda asosan tevarak-atrofdagi narsa yoki buyumlarni sanash, taqqoslash, o'lchamlarni bir-biri bilan qiyoslash, narsalarning turgan o'rnini ko'rsatish, (pastda, balandda, chapda, o'ngda) ularning geometrik shakllarini farqlash, bir necha shakllardan boshqa bir shakllarni yasash kabilar muhim sanaladi. Bundan tashqari bolalarni matematik tasavvurlarini o'stirishda turli xil o'yinlarda foydalanish ham ijobiy samara beradi.

Bolalar narsalarni kuzatish, guruhlarga va alohida qisimlarga ajratish, guruhlarning ko'payishi va kamayishini sezish, narsalarni birgalikda yig'ish, bir-birining ustiga qo'yish, aniq bir guruhga to'plash, ularning nomlarini bilish haqida so'z lug'atini egallash kabilar bolalarni dastlabki sanoq haqidagi tasavvurlarni va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Boshqa barcha guruhlarda (ikkinchi kichik, o'rta, katta tayyorlov guruhi) matematika mashg'ulotlarida har bir yosh guruhiga mos dastur asosida "son va sanoq", "miqdor", "geometrik figuralar", "fazoviy tasavvur", "vaqt haqidagi tasavvur" kabi bo'limlar asosida mukammal bilim berib borilsa bolalarda ijodiy qobiliyatlar ham shunaqa mustahkam shakllanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatini o'stirishda matematik mashg'ulotlarining ahamiyati cheksiz. Shuning uchun bolalarning ijodiy qobiliyatini o'stirishda matematikaga oid mashg'ulotlaridan keng foydalaniladi.

Bu mashg'ulotlar sanoqqa o'rgatish, birinchi o'nlik ichida miqdoriy munosabatlarni rivojlantirish, eng sodda arifmetik masalalarni yechish va tuzatish hamda ayni namayon qilingan to'plamlar ustida amallar bajarishga, shartli o'lchov bilan o'lchashlar o'tkazishga, sochiluvchi va suyuq jismlarni hajmini aniqlashga, ularning geometrik figuralar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishga, fazoviy munosabatlarni tushunishlari, predmetlarni teng qismlarga bo'lish malakalarini shakllantirishga katta imkon yaratadi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qishga tayyorlaydi.